

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA
TARBIYALASH**

Sattorova Maftuna Abdurashid qizi

TerDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Saparova Saodat Baxtiyor qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24-05 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19050208>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari, mazmuni va samarali usullari yoritilgan. Milliy qadriyatlarning shaxs kamolotidagi o'rni, o'quv jarayonida va sinfdan tashqari faoliyatda ularni singdirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy hamkorlik, xalq og'zaki ijodi, milliy bayramlar va an'analar orqali yosh avlodda vatanparvarlik, hurmat, odob-axloq fazilatlarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, tarbiya, boshlang'ich ta'lim, ma'naviyat, vatanparvarlik, an'ana, xalq og'zaki ijodi, pedagogik yondashuv.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы воспитания учащихся начальных классов в духе национальных ценностей. Проанализированы роль национальных ценностей в формировании личности ребенка, а также эффективные методы их внедрения в учебный и внеучебный процесс. Особое внимание уделено сотрудничеству школы и семьи, использованию устного народного творчества, национальных праздников и традиций в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: национальные ценности, воспитание, начальное образование, духовность, патриотизм, традиции, народное творчество, педагогический подход.

Annotation: This article discusses the pedagogical foundations of educating primary school students in the spirit of national values. It analyzes the role of national values in personal development and effective methods of integrating them into both curricular and extracurricular activities. Special attention is given to school-family cooperation, folklore, national holidays, and traditions as means of fostering patriotism and moral qualities in young learners.

Keywords: national values, education, primary education, spirituality, patriotism, traditions, folklore, pedagogical approach.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, turli madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari bolalarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida bolaning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy me'yorlarni qabul qilishi, o'zligini anglash jarayoni boshlanadi.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma'naviy boyliklari, urf-odatlar, an'analari, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribasini o'zida mujassam etadi. Ular jamiyatning ma'naviy poydevori bo'lib, avloddan-avlodga o'tib keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ana shu qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali ularda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, ajdodlarga hurmat, mehr-oqibat va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Sharq mutafakkirlari komil inson tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy

o'z asarlarida inson kamoloti jamiyat ravnaqi bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy ilm-ma'rifat va axloqiy yetuklikni insonning eng muhim sifatleri sifatida e'tirof etadi. Alisher Navoiy esa o'z ijodida halollik, adolat, saxovat va mehr-oqibatni ulug'laydi. Ularning boy ilmiy va badiiy merosi boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish, avvalo, dars mazmunini to'g'ri tashkil etishni talab etadi. Ona tili va o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi namunalari — ertaklar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar orqali bolalarga ezgulik va yovuzlik, halollik va yolg'on, mehnatsevarlik va dangasalik tushunchalari sodda va tushunarli tarzda yetkaziladi. Bunday asarlar bolalarning nafaqat nutqini rivojlantiradi, balki ularning axloqiy ongini ham shakllantiradi. Milliy musiqa va tasviriy san'at elementlaridan foydalanish esa estetik didni tarbiyalaydi va milliy madaniyatga qiziqishni oshiradi.

Maktabda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham milliy qadriyatlarni singdirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, Navro'z bayramini nishonlash jarayonida o'quvchilar milliy taomlar, urf-odatlar, xalq o'yinlari bilan tanishadilar. Bu esa ularda milliy o'zlikni anglash va birlik tuyg'usini mustahkamlaydi. Shuningdek, Mustaqillik kuni, Vatan himoyachilari kuni kabi bayram tadbirlari orqali o'quvchilarda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'qituvchining shaxsiy namunasining o'rni beqiyosdir. O'qituvchining nutqi, muomalasi, kiyinish madaniyati, bolalarga munosabati milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos bo'lishi zarur. Chunki bu yoshdagi bolalar ko'proq taqlid qilish orqali o'rganadilar. Agar o'qituvchi o'z faoliyatida halollik, adolat va mehribonlikni namoyon etsa, bu sifatlar o'quvchilarda ham shakllanadi.

Tarbiyada oila va maktab hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Oilada shakllangan qadriyatlar maktabda mustahkamlanadi yoki aksincha, maktabdagi tarbiya oilaviy muhit bilan uyg'unlashgandagina samarali natija beradi. Shu sababli ota-onalar bilan muntazam suhbatlar, davra uchrashuvlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish muhimdir. Oila, maktab va mahalla hamkorligi uzviy yo'lga qo'yilgandagina barkamol avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyatning ma'naviy kelajagini belgilovchi muhim omildir. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bola o'z tarixini, tilini, madaniyatini qadrlaydi, shu bilan birga boshqa millat vakillariga hurmat bilan qaraydi. Bunday yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlab, ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shabbazova, D.R. Milliy madaniyat va uning shakllanishi. Toshkent: Sharq, 2020.
2. Muxtorova, L.A. Milliy ong va milliy g'urur: nazariy asoslar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2018.
3. Сатторова, М., & Ергашова, М. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS OF EDUCATING YOUTH AS WELL-ROUNDED INDIVIDUALS IN THE CONTEXT OF INDEPENDENCE. Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок, 1(3), 201-203
4. Sattorova, M. A., & Ziyaqulova, M. S. (2025). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA

MUTAFAKKIRLAR MEROSI ORQALI MULOQOT MADANIYATI VA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH. Inter education & global study, (4), 517-524.

5. Abdisamatova, D. S. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ROLE OF MODULAR EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION PROCESS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(8), 175-180.